

Janub gavhari bo'lmish Termiz shahridan chiqqan "Mard o'g'lon"larning eng kenjasি



Janub gavhari bo'lmish Termiz shahridan chiqqan "Mard o'g'lon"larning eng kenjasি

Har bir ota-onan farzandlarining porloq kelajagi, kamolini o'ylab yashaydi bu hayotda. Aslida, yashashdan maqsad ham, hayotning ma'no-mazmuni ham farzand bo'lib qolar ekan bora-bora. O'g'il-qizlarning katta-kichik yutug'i, erishgan mittigina bo'lsa-da, natijasi ota-onaning terisiga sig'mas darajada quvonchiga sabab bo'ladi.

Asli surxondaryolik Mohida Jumaeva hamda O'Imas Yo'Idoshev bugun 3 farzandning kenjasи – Asadbekning ulkan yutug'idan ana shunday cheksiz quvonch va faxr hissini tuymoqda. Ular kutilmagan ulkan baxt, xushxabar, farzandining katta yutug'i, davlat e'tirofidan o'zlarida yo'q xursand.

Gap shundaki, endi 15 yoshga to'lgan Asadbek Ayubjonov Prezident qarori bilan "Mard o'g'lon" davlat mukofoti bilan taqdirlanganlar safidan o'rinn oldi. O'rinn olganda ham eng yosh vakil sifatida davlat mukofotiga sazovor bo'ldi.

Ma'lumki, ushbu mukofot bilan yurtimizdag'i keng ko'lamli islohotlarda faollik ko'rsatib, o'zining bilim va iqtidori, intiluvchanligi va tashabbuskorligi, halol va samarali mehnati bilan Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, yangi O'zbekistonni barpo etish va uning xalqaro nufuzini oshirishga munosib hissa qo'shib kelayotgan iqtidorli yigitlar taqdirlanadi. Farzandining ana shunday iqtidorlar, faollar safida munosib ko'riliши, albatta, ota-onaga cheksiz xursandchilik, hayajon ulashishi tabiiy.

Asadbek Ayubjonov ayni paytda V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabining 8-sinfini tugatdi. U yoshligidan musiqaga, skripka chalishga hamda dirijyorlikka qiziqdi. Bu qiziqish va intilish uni nafaqat respublika, balki dunyo sahnalariga, xalqaro festivalъ va ko'rik-tanlovlар arenalariga olib chiqdi. Taniqli xorijiy musiqashunoslar e'tiboriga tushishiga sababchi bo'ldi.

Asadbekning san'atga oshufta bo'lishi, ko'zga ko'rinishi, yutuq va natijalari haqida onasi Mohida Jumaeva to'lqinlanib gapirib berdi:

— Asadbek 4 yosh payti ona-bola kun bo'yи uyda o'tirganimizda oldiga o'yinchoqlarini qo'yib, televizordan orkestr kontsertlarini qo'yib qo'yardim, — klassik musiqalarni eshitsin, qulog'i o'rgansin, qalbiga singsin, degan maqsad ilinjida. Bora-bora o'g'limda qiziqish paydo bo'ldi. Shu bois ham Asadbekdagi iqtidor, qiziqishni payqab, astoydil qo'llab-quvvatladik, shu yo'nalishda o'qishiga sharoit yaratdik. Uchtepa tumanidagi respublika ixtisoslashtirilgan musiqa va san'at maktab-internatiga berdik. U yerda skripka chalishni o'rgandi, ustozlaridan bilim-ko'nikma oldi, dirijyorlik bilan shug'ullandi. O'g'limdagi iqtidorni payqagan ustozlari uni O'zbekiston konservatoriyası professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi Vladimir Neymer bilan uchrashтиrdi. Bu yog'iga Vladimir Neymer unga ustozlik qilib, astoydil shug'ullandi. 3 oydan so'ng Asadbek katta sahnaga chiqdi — Germaniya elchixonasi vakillari ishtirokidagi katta kontsertda sahnaga chiqqanida o'g'lim 7 yosh edi. O'sha paytdagi quvonchimiz, hayajonimizni tasvirlash qiyin, juda xursand bo'lganmiz. Shundan keyin asta-sekin katta sahnalarga chiqqa boshladi, dirijyorlik qildi. O'g'lim Neymerning Rossiyadagi hamkasbi, dirijyor, skripkachi, pedagog Vladimir Spivakovning e'tiboriga tushdi. U Asadbekdagi iqtidorni ko'rib, bir necha bor Rossiyada bo'lib o'tgan festivallarga taklif qildi. Shu tariqa farzandimiz "Moskva do'stlarni chorlaydi" festivalida va boshqa ko'rik-tanlovlarda qatnashib, sovrinli natijalarni qo'lga kiritdi. Qolaversa, Rossiya telekanallaridagi ko'rsatuvlarda ishtirok etdi.

Asadbekning onasi bilan suhbatlashar ekanmiz, uning bu yoshda yuksak mukofotga loyiq ko'rili gani bejiz emasligini angladik. Asadbek Ayubjonov o'zining iqtidori, salohiyati, musiqa bilan hamnafas ekanligi bilan yuksak natjalarga erishib kelmoqda. U Rossiya Mudofaa vazirligining orkestriga dirijyorlik qilganida 8 yoshli bola edi. Shu yoshda xorijning katta sahnasiga chiqish uchun, albatta, shunga munosib bo'lish kerakligini hammamiz yaxshi anglaymiz. Asadbek respublikamizda o'tkazilgan ko'rik-tanlovlar bilan birga, bir qator xalqaro tanlovlar, festivallarda O'zbekiston vakili sifatida ishtirok etib kelmoqda. Jumladan, 2019 yilda Volga bo'yи shaharlarida bo'lib o'tgan xalqaro festivalda ishtirok etdi. 2020 yilda Turkiyada onlayn tarzda o'tkazilgan

dirijyorlar ko'rik-tanlovida gran-pri sohibi bo'ldi. Bir nechta darslik, qo'llanmalarda u haqdagi ma'lumotlar o'rin oldi.

— Klassik musiqa, ariyalarni tinglash jonu dilim, — deydi Asadbek Ayubjonov. — Bu sohani rivojlantirishga hissa qo'shib, O'zbekiston klassikasini dunyoga tanitish niyatim bor va bu maqsadim yo'lida tinimsiz harakat qilaman. 4-sinfdan boshlab V.Uspenskiy nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktabida o'qiy boshladim. Bu yerdagi ustozlarim Kamola Abdullaeva hamda Ma'suda Ahmedova, qolaversa, katta sahnalarga chiqishimga sababchi bo'lgan ustozim Vladimir Neymerning xizmatlarini, men uchun qilgan harakatlarini oqlashim uchun bor imkoniyatimni ishga solaman. Davlatimiz rahbarining biz yoshlarga qaratayotgan e'tibori, g'amxo'rligi, rag'bati bizni yangidan-yangi marralar sari ruhlantirmoqda. Davlat mukofotiga munosib bo'lish mas'uliyati endi menga tinchlik bermaydi. Yurtimning dovrug'ini jahonga yoyish, dunyo sahnalariga olib chiqish yo'lida o'qib-o'rganishdan to'xtamayman.

Darhaqiqat, eng yosh "Mard o'g'lon"ning azmu shijoati, iqtidori, intilishi, faolligi o'zi kabi o'g'il-qizlarga namuna, motivatsiya bo'lishi shubhasiz. Yurtimizdagи minglab, millionlab ota-onalar Asadbekning ota-onasi singari farzandining yutug'idan quvonsa, ko'klarga uchsa, demakki, yurtimiz yoshlaringin marra va yutuqlari kutilgandan-da ziyoda bo'ladi...